

VOYAGA YETMAGANNI PSIXOTROP MODDALARINI ISTE'MOL ETISHGA JALB QILISHNING OLDINI OLISHNI YO'NALISHLARI

Tursunboyeva Munira Otovulla qizi

Yuridik fanlar Kapitan Jizzax shahar IIB JXX HPB inspektor-psixolog

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtida giyohvandlik balosi insoniyat hayotiga jiddiy xavf solayotgan, uning aziz va mukarramligiga putur yetkazayotgan mash'um illatlardan bo'lib turibdi. Bejizga uni "asr vabosi" deb sifatlashmagan. Yer yuzidagi narkobiznesda aylanayotgan pul mablag'i dunyo aholisining oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, ta'lif tizimi va tibbiy xizmatga sarflanayotgan xarajatlaridan ancha ko'pligi bilan farqlanishi hech kimga sir emas. Eng achinarlisi, giyoxvandlik og'ir jinoyatlarning sodir etilishiga, oilalar va millat genofondining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bu giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyat va huquqbazarliklar o'z domiga yoshlarni ayniqsa, voyaga yetmaganlarni tortmoqda. Ushbu maqolada voyaga yetmagananni psixotrop moddalarini iste'mol etishga jalg qilishning oldini olishni yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari, qaysi tomonlariga e'tibor berish lozimligi hamda amaliyotda mavjud muammolarga yechim bo'lishi mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Voyaga yetmaganlar, oldini olish, jinoyat uchun javobgarlik, ichki ishlar organlari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, jalg qilishi.*

O'zbekistonda keyingi ikki yilda yoshlar ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rta sidagi jinoyatchilik va huquqbazarlik oldingi yillarga nisbatan kamaygan bo'lishiga qaramay aynan tartibsizlik, taqiqlangan psixotrop moddalarning yoshlar o'rta sidada noqonuniy tarqatilishi hamda ta'lif muassasalari o'quvchilarining o'tkir tig'li sovuq qurollardan foydalanishi kabi salbiy illatlarning ko'payib borishi keng jamoatchilik vakillarini tashvishga solib qo'yemoqda. Yuqorida holatlarni kamaytirish, shuningdek, mazkur turdag'i salbiy illatlardan, uning oqibatlarida keng jamoatchilik fikrini hamda yoshlar munosabatini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.¹¹

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining "Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati" yo'nalishida voyaga yetmaganlarni giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga jalg qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash.

¹¹ <https://dissercat.com/catalog/yuridicheskie-nauki/administrativnoe-pravo-finansovoe-pravo-informatsionnoe-pravo>

va qayta tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslar tashkil etilganligi samarali ish faoliyatini olib borish uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar muhitini yaxshilash bo'yicha ko'rيلayotgan amaliy chora-tadbirlar ko'p jihatdan qisman va mozaik xarakterga ega bo'lib, faqat yosh avlodni ijtimoiylashtirishning ayrim sohalarini qamrab oladi, ularni amalga oshirish tegishli muammolarning hal etilmaganligi tufayli to'sqinlik qiladi. Voyaga yetmaganlarni psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg etganlik uchun jinoiy javobgarlik va jazo choralar bo'yicha hal etilmagan masalalar mavjud.

Voyaga etmaganlarni psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg qilganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi O'zbekiston va MDH davlatlarining jinoiy qonunchiligini shakllanishi va rivojlanishiga voyaga yetmaganlar giyohvandligining rivojlanish tendentsiyalari va voyaga yetmaganlarning normal rivojlanishini jinoiy-huquqiy vositalar orqali yetarli darajada himoya qilish uchun huquqshunos olimlarni izlash yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi JK ning 274-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg etish

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalg etish —

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

- a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarida;
- v) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —
uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.¹²

Misol uchun, "Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 230-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini iste'mol qilishga undash.

1. Giyohvandlik vositalari , psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini iste'mol qilishga undash , -

uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

2. Xuddi shunday qilmish:

¹² <https://lex.uz/acts/-111453>

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki uyushgan guruh tomonidan;

v) ikki undan ortiq shaxsga nisbatan;

d) zo'ravonlik qo'llash yoki uni qo'llash tahdidi bilan;

e) axborot va telekommunikatsiya tarmoqlaridan (shu jumladan Internet) foydalanish, -ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki cheklashsiz besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;

3. Ushbu moddaning birinchi yoki **ikkinchi qismlarida** nazarda tutilgan harakatlar , agar ular:

a) voyaga yetmaganga nisbatan sodir etilgan;

b) ehtiyyotsizlik oqibatida jabrlanuvchining o'limiga yoki **boshqa** og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, -

yigirma yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilib yoki unsiz holda o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. yillar yoki usiz.

4. Ushbu modda uchinchi qismining birinchi , ikkinchi qismlarining «a» bandlarida nazarda tutilgan harakatlar , agar ular ehtiyyotsizlik oqibatida ikki yoki undan ortiq jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lsa,

-yigirma yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilib yoki unsiz holda o'n ikki yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. yillar yoki usiz.

Eslatma. Ushbu modda OIV infeksiyasi va boshqa xavfli yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishda qo'llaniladigan tegishli asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanishni rag'batlantirish holatlariga nisbatan tatbiq etilmaydi”¹³.

Ikkala qonunchilikda o'xshahliklar bor, ammo Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 230-moddasi kengaytirilgan bo'lib, uning uchinchi qismi “a” bandida voyaga yetmaganga nisbatan sodir etilgan bo'lsa degan avjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi JK ning 274-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg etishga qo'shimcha sifatida qo'shish lozim.

¹³ https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/db65d251c6b6dae68ded6f1da15f68c17a0dd855/

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://dissercat.com/catalog/yuridicheskie-nauki/administrativnoe-pravo-finansovoe-pravo-informatsionnoe-pravo>
- 2.<https://lex.uz/acts/-111453>
- 3.https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/db65d251c6b6dae68ded6f1da15f68c17a0dd855/